


## **Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-may)**


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3792,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 123,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,3 % ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 5,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qaytaishlash) sanoatning 39,8 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, tog'-kon sanoatida 8,5 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 20,4 % ga pasayishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2060,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 54,3 %ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 88,7 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 4,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali 54,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 379,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 18,4 %), quyi texnologiyali 1538,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 74,7 %) ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali

Ulushi % da

6,9

2020- y.

4,3

2021- y.

### O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi % da

2,4

2020- y.

2,6

2021- y.

### O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi % da

15,6

2020- y.

18,4

2021- y.

### Quyi texnologiyali

Ulushi % da

75,1

2020- y.

74,7

2021- y.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i  
mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 320,8 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 57,2 % ga kamaygan), 380,2 tonna bint (11,3 %) kamaygan bo'lsa, 23,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (23,8 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	19,8	23,1	3,3
Aroq, ming l. 100% spirt	7119,3	320,8	-6798,5
Sellyuloza, tonna 90%	763,7	615,4	-148,3
Paxta tolasi, ming tonna	25,4	11,0	-14,4
Paxta chigit, ming tonna	41,3	17,6	-23,7
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,1	1,1	0,0
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	16,7	9,4	-7,3
Etilen polimer qoplar, ming tonna	6,6	6,5	-0,1
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	6375,6	6944,7	569,1
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	48,4	56,6	8,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**23,1**  
*ming tonna*



Aroq

**320,8**  
*ming l. 100% spirit*




Sellyuloza

**615,4**  
*tonna 90%*



Paxta chigit

**17,6**  
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**1,1**  
*ming tonna*



Paxta tolasi

**11,0**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**6,5**  
*ming tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**6944,7**  
*mln.kVt/s*



Bug' va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**56,6**  
*ming Gkal*




Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**9,4**  
*ming tonna*

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**  
**2021- yilning yanvar-may oylarida**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1694,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (44,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,3 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	6375,6	6944,7	569,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	48,4	56,6	8,2

## **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,4 % ga pasayishi kuzatildi.

### **Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1286,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,9 % ni tashkil etdi.

2020- yil  
yanvar-may

Ulushi % da

46,5

53,5

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-may

Ulushi % da

39,8

60,2

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,4 % ni (2020- yil yanvar-may oyida 4,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 31,7 % ni, shuningdek, Guliston shahri 15,7 % ni hamda Mirzaobod tumani 14,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (122,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Boyovut tumanida (121,1 %), Sirdaryo tumanida (150,0 %) va Sayxunobod tumanida (116,6 %), Mirzaobod tumanida (112,8 %) qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021-yilning yanvar-may oylarida)


	MIrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1286,7</b>	<b>100,0</b>	<b>122,0</b>
Guliston sh.	201,8	15,7	107,3
Shirin sh.	10,5	0,8	105,6
Yangiyer sh.	87,2	6,8	110,2

#### *tumanlar:*

Boyovut	55,2	4,3	121,2
Guliston	85,5	6,6	124,0
Mirzaobod	190,8	14,8	112,8
Oqoltin	78,5	6,1	113,0
Sardoba	37,2	2,9	107,7
Sayxunobod	72,0	5,6	116,6
Sirdaryo	408,2	31,7	150,0
Xovos	59,8	4,6	107,5

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 403,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sirdaryotumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 35,1%), Guliston shahri (28,9 %), Sayxunobod tumani (31,7 %) hamda Sardoba tumanlarida (19,3 %) kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2021-yil yanvar-may mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
--	-----------------------------------	-----------------------------

**Sirdaryo viloyati** **3792,2** **123,7**

**Guliston sh.** **319,7** **100,4**

**Shirin sh.** **1579,3** **110,3**

**Yangiyer sh.** **228,3** **109,7**

**tumanlar:**

**Boyovut** **180,0** **108,6**

**Guliston** **120,1** **142,6**

**Mirzaobod** **196,3** **101,7**

**Oqoltin** **174,4** **122,2**


**Sardoba** **106,5** **124,2**

**Sayxunobod** **135,0** **104,2**

**Sirdaryo** **601,9** **112,6**

**Xovos** **150,6** **121,4**

**Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,6 %), Sirdaryo tumani (15,9 %), Guliston shahri (8,4 %), Yangiyer shahri (6,0 %), hamda Oqoltin tumani (4,6 %), Boyovut tumani (4,7 %), va Xovos (4,0 %) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Eng past ko‘rsatkich esa Sardoba tumani (2,8 %) Guliston tumani (3,2 %) hamda Sayxunobod tumaniga (3,6 %) to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va  
iste'mol mollari ishlab chiqarish  
(2021-yil yanvar-may oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4396,8</b>	<b>1491,9</b>
Guliston sh.	3494,2	2205,5
Shirin sh.	83561,0	554,3
Yangiyer sh.	5154,5	1968,6
tumanlar:		
Boyovut	1364,4	418,8
Guliston	1614,4	1149,5
Mirzaobod	2607,4	2533,8
Oqoltin	3291,4	1481,4
Sardoba	1586,6	554,9
Sayxunobod	1717,7	915,8
Sirdaryo	4619,2	3132,6
Xovos	1549,7	615,1

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi  
(2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)**



■ Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ■ Iste'mol mollari




Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab  
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi  
(2021- yil yanvar-may oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatanulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1173,3</b>	<b>30,9</b>
Guliston sh.	142,8	44,7
Shirin sh.	11,1	0,7
Yangiyer sh.	106,0	46,4
tumanlar:		
Boyovut	165,5	91,9
Guliston	59,1	49,2
Mirzaobod	30,6	15,6
Oqoltin	78,2	44,9
Sardoba	106,5	100,0
Sayxunobod	52,5	38,9
Sirdaryo	299,7	49,8
Xovos	121,4	80,6

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1372,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Mirzaobod tumani (68,2 %), Boyovut tumani tumani (92,6 %), Sayxunobod tumani (75,8 %), Xovos tumani (87,6 %) Guliston shahri (58,2 %) hamda Yangiyer shahrida (50,2 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Sirdaryo tumani (45,7 %), Guliston tumani (49,2 %), Oqoltin tumani (48,4 %), hamda Shirin shahrida (0,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini  
(2021-yil 1-jyun holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 2177 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'sratmoqda, shundan 559 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 25,7 %) Guliston shahriga, 364 tasi (16,7 %) Sirdaryo tumaniga, 192 tasi (8,8 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-may oylarida viloyatda 206 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 58,1 foizi Guliston shahriga, Boyovut tumani, Mirzaobod tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo`limi**  
Aloqa telefonasi: (067) 236-86-23